Dastlabki ma’lumotlar

# 2022- yilning yanvar - sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi – 23372,1 mlrd. so‘mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 22993,5 mlrd. so‘mni (103,7 %), o‘rmon xo‘jaligi – 297,0 mlrd. so‘mni (102,1 %), baliqchilik xo‘jaligi – 81,6 mlrd. so‘mni (104,0 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Qashqadaryo viloyatining ulushi 9,4 % ni tashkil etdi.





## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘sish sur’ati




## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



2022- yilning yanvar - sentabr yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 103,7 % i - dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar,102,1 % i - o‘rmon xo‘jaligi, 104,0 % i – baliq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.

## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi




2022- yilning yanvar- sentabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Koson (2276,6 mlrd. so‘m) Qamashi (2069,5 mlrd. so‘m) va Kasbi (1986,8 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qarshi shahri (181,5 mlrd. so‘m),

Shahrisabz shahri (155,1 mlrd. so‘m) va Dehqonobod tumanini (911,1 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan (103,7 %) yuqori o‘sish sur’atlari Nishon (104,3 %), Mirishkor (107,8 %), Chiroqchi (104,1 %), Qarshi shahri (116,6 %), Kasbi (105,9%), va Koson (107,4%), tumanlarida kuzatildi. Shahrisabz shahri (100,2 %), va G‘uzor (100,2 %) tumanlarida esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.

## Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati



# Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2022- yilning yanvar- sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 22728,1 mlrd. so‘mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari - 9380,2 mlrd. so‘mni (104,7 %), chorvachilik mahsulotlari – 13347,9 mlrd. so‘mni (103,0 %) tashkil qildi.

## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 68,1 % i - dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 28,3 % i - fermer xo‘jaliklariga, 3,6 % i - qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)




2022-yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko‘ra ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Nishon tumanida (42,3 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Dehqonobod tumanida (93,5 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Qarshi shahrida (17,0 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Shahrisabz shahrida (1,3 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Nishon tumanida (49,5 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Koson tumanida (0,9 %) qayd etildi.

## Dehqonchilik

2022- yilning yanvar- sentabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 9380,2 mlrd. so‘mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 104,7 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 41,3 % ni tashkil qildi.

### Don jami

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon(shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 760,2 ming t. don (2021- yilning yanvar- sentabr nisbatan 8,7 % ga ko‘p ) ishlab chiqarildi. Don ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 81,7 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha don yetishtirish hajmi, tonna



# Kartoshka

**Hajmi, ming t.**




**O'sish sur'ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi**




- **Fermer xoʻjaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari**
- **Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 148,5 ming t. kartoshka (2021- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 1,0 % ga koʻp) ishlab chiqarildi. Kartoshka ishlab chiqarish koʻrsatkichlarini xoʻjaliklar toifalari boʻyicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 81,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari hissasiga toʻgʻri kelishini koʻrsatmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha kartoshka yetishtirish hajmi, tonna



# Sabzavotlar

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 402,8 ming t. sabzavotlar (2021- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 0,8 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 81,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, t.



# Poliz

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 159,0 ming t. poliz (2021- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 0,7 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Poliz ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, poliz ishlab chiqarish umumiy hajmidan 54,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha poliz yetishtirish hajmi, tonna



# Mevalar

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 144,0 ming t. mevalar (2021- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 3,1 % ga ko‘p ) ishlab chiqarildi. Meva ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, meva ishlab chiqarish umumiy hajmidan 52,7 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha mevalar yetishtirish hajmi, tonna



# Uzum

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 78,2 ming t. uzum (2021- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 3,1 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Uzum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 52,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha uzum yetishtirish hajmi, tonna



## Chorvachilik



2022- yilning yanvar- sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 13347,9 mlrd. so‘mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 58,7 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2022- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 228,9 ming t. go‘sht (2021- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 2,4 % ga ko‘p), 897,5 ming t. sut (1,6 % ga ko‘p), 405,8 mln.dona tuxum (16,8 % ga ko‘p), 169,8 ming dona qora ko‘l teri (0,9 % ga ko‘p ) ishlab chiqarildi va 4526,3 t. baliq (3,6 % ga ko‘p) ovlandi.

# Go‘sht *(tirik vaznda)*

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 228,9 ming t. go‘sht (2021- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 2,4 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Go‘sht ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha go‘sht *(tirik vaznda)* yetishtirish hajmi, tonna



## Sut

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 897,5 ming t. sut (2021- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 1,6 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 96,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha sut yetishtirish hajmi, t.



# Tuxum

Hajmi, mln.dona




O‘sish sur’ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi






2022- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 405,8 mln. dona tuxum (2021- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 16,8 % ga ko‘p ishlab chiqarildi.Tuxum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 62,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha olingan tuxum hajmi, ming dona



# Baliq

**Hajmi,t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning yanvar- sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 4526,3 tonna (2021- yilning yanvar- sentabriga nisbatan 3,6 % ga ko‘p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 81,8 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hajmi, tonna



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2022- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,6 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 93,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 1,4 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 7,4 % i fermer xo‘jaliklariga, 86,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 6,2 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, otlar umumiy sonidan 13,1 % i fermer xo‘jaliklariga, 82,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 4,5 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 7,7 % i fermer xo‘jaliklariga, 65,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 27,0 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

2022- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 687,7 mingtaga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni - 45,9 ming boshga (2,8 %) ko‘paydi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami

yirik shoxli qoramollarning 93,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



**Qashqadaryo viloyati bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh**



2022- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 554,5 mingtaga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni - 15,1 ming boshga (2,8 %) ko‘paydi.

## Sigirlar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 92,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



2022- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 4 850,5 mingtaga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni - 97,2 mingtaga (2,0 %) ko‘paydi.

## Qo‘y va echkilar










Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2022- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 86,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Qashqadaryoviloyatibo‘yicha qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



2022- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 34,9 mingtaga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 1056 boshga (3,1 %) ko‘paydi.

## Otlar

**Soni, bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar, xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 82,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ta’kidlash lozim.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh



2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 6498,4 mingtaga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni - 47,7 ming boshga (0,7 %) ko'paydi.

## Parrandalar

**Soni, ming bosh**




**O'sish sur'ati**




**Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo'jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**

**Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 65,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.



## Qashqadaryo viloyati bo‘yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi

- 75-221-34-46
- 75-220-04-15